



Jhone M. Ebert, Senior Deputy Commissioner for Education Policy  
Education Building, Room 2M EB (518) 474-3862  
89 Washington Avenue  
Albany, NY 12234  
[jhone.ebert@nysed.gov](mailto:jhone.ebert@nysed.gov)

2017-yil 27-fevral

Kimga: Okrug rahbarlari  
Davlat maktablari boshqaruvchilari  
Davlat maktablari direktorlari  
Davlatga tegishli bo'lmagan va o'z nizomi asosida  
faoliyat yurituvchi maktablar ma'murlari

Kimdan: Jhone M. Ebert, komissarning katta yordamchisi

Mavzu: Yaqinda immigratsiya bilan bog'liq hatti-harakatlardan kelib chiqib,  
maktablarda ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishga qarshi kurash bo'yicha  
mavjud qo'llanma va resurslar

So'nggi haftalarda ommaviy axborot vositalarida mamlakatdagi ko'plab maktablarda ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitish singari noxush hodisalar haqidagi xabarlar paydo bo'la boshladi. Bundan tashqari, yaqinda federal hukumat amaldorlarining immigratsiyaga oid hatti-harakatlari butun mamlakatda qo'rquv va sarosimaga sabab bo'ldi. Nyu-York shtatining Ta'lim departamenti ("NYSHTD" yoki "Departament") o'quvchilarimiz har kuni o'qib-o'rganishga keladigan maktab muhitiga salbiy ta'sir etadigan har qanday hatti-harakatga jiddiy e'tibor qaratadi. Nyu-York shtatida advokatlar, ota-onalar va maktab xodimlari Departamentga murojaat qilib, uni ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishga oid mavjud yo'riqnoma va resurslarga va mukammallashtirish, shuningdek, "Barcha o'quvchilarning qadr-qimmatini to'g'risida"gi qonunga ("DASA" yoki "Qadr-qimmat to'g'risida"gi qonun) ko'ra, maktablarda ijobiy muhitni qaror toptirish va qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga chorladi.

Nyu-York shtatining "Qadr-qimmat to'g'risida"gi qonuni loyihasi 2012-yilda o'quvchilarni maktab hududi, maktab avtobusi va/yoki biror maktab tadbirida ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishdan xoli, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish uchun qonun sifatida imzolandi va 2013-yilda unga kiber-qo'rqitishga oid qo'shimcha kiritildi.<sup>1</sup> Qonunda maktablar oldiga o'quvchilar, ota-onalik qiluvchilar va xodimlarni DASA qonuni to'g'risidagi ma'lumot bilan ta'minlash, xavfsiz maktab muhitini qaror toptirishni talab qiluvchi qonun-qoida va tartiblar ishlab chiqish talabi qo'yiladi. Xususan, DASA qonuni maktab okruglaridan o'quvchilarni boshqa o'quvchilar yoki maktab xizmatchilari ta'qib qilishi, qo'rqitishi (jumladan, kiber-qo'rqitishi) va kamsitishini

<sup>1</sup> "Qadr-qimmat to'g'risida"gi qonun haqida qo'shimcha yo'l-yo'riq va resurslar bilan tanshish uchun quyidagi havolaga kiring: <http://www.p12.nysed.gov/dignityact/>.

taqiqlovchi axloq kodeksini, shuningdek, kamsitish va ta'qib qilish singari noxush hodisalarga qarshi choralar ko'rish va ular haqida NYSHTDga xabar qilish to'g'risidagi nizomlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Quyida tavsiflanganiday, NYSHTD Nyu-York shtati bosh prokuraturasi ("BP") bilan birga maktab xodimlari, o'quvchilar va ota-onalarga ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitish singari noxush hodisalar haqida xabar berish va ularni hal qilishga oid yo'riqnoma va resurslar ishlab chiqdi. NYSHTD va BP 2016-yil avgustida ishlab chiqqan qo'shma yo'riqnoma hujjatida DASA qonuni buzilishi bilan bog'liq noxush hodisalar haqida xabar berish va ularni tergov qilishning namunaviy formasi bor.<sup>2</sup> Departament ushbu muhim hujjatga qo'shimcha ravishda maktablar va oilalarga DASA qonuni hamda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi maktablarga oid yo'riqnoma va texnik yordamni u yerdan olish mumkinligini qo'shimcha qilishni istaydi.

NYSHTD DASA qonuni bilan bog'liq savollari bor okruglar, ota-onalar va vasiylarni tegishli tergov bayonnomalari hamda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi maktab muhiti yaratish va unga ko'maklashish tartiblari va eng yaxshi amaliyotlari to'g'risida yo'riqnoma va texnik yordam olish uchun NYSHTDga murojaat qilishga chorlaydi. Departamentga quyidagicha murojaat qilish mumkin:

- Ikki tilli ta'lim va jahon tillari boshqarmasiga (OBEWL) (718) 722-2445 yoki [obewl@nysed.gov](mailto:obewl@nysed.gov) va yoki quyidagi orqali:
- O'quvchilarga yordam ko'rsatish xizmatlari boshqarmasiga (SSS) (518) 486-6090 yoki [studentsupportservices@nysed.gov](mailto:studentsupportservices@nysed.gov) orqali.

Bundan tashqari, DASA qonuni bilan bog'liq savollari bor va til xizmatiga muhtoj shaxslar Nyu-York universiteti hududida joylashgan Mintaqadagi tilga oid ikki tilli ta'lim resursining (Language Regional Bilingual Education Resource Network – RBERN) ota-onalar uchun ishonch telefoniga quyidagilar orqali murojaat qilishi mumkin:

- Mana bu yerda so'rov formasini to'ldirish bilan
- Telefon: (800) 469-8224
- Faks: (212) 995-4199
- Elektron pochta: [nysparenthotline@nyu.edu](mailto:nysparenthotline@nyu.edu)
- Pochta: NYS ELL Parent Hotline Team  
c/o NYS Statewide Language RBERN at NYU MetroCenter  
726 Broadway – 5th Floor  
New York, NY 10003

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 310-bandiga ko'ra, shaxslar ham okrug hatti-harakati ustidan shikoyat qilishi mumkin. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 310-bandida ko'zda tutilishicha, o'zini maktab okrugi majlisi yoki maktab ma'muriyatining biror hatti-harakatidan norozi bo'lgan tomonlar Ta'lim komissariga bunday hatti-harakatni ko'rib

---

<sup>2</sup> Ushbu yo'riqnomani mana bu havoladan olish mumkin:  
<http://www.p12.nysed.gov/dignityact/documents/SED-AGLtrandGuidance8-31-16.pdf>.

chiqishni so'rab, arz qilishi mumkin. Shikoyatni qanday jo'natish to'g'risidagi ma'lumot ingliz, ispan, arab, xitoy (soddalashtirilgan), bengal va Gaiti kreolchasida quyidagi havolada mavjud: [www.counsel.nysed.gov](http://www.counsel.nysed.gov).

Shuni yodda tutingki, Departament o'quvchining shaxsini aniqlash mumkin bo'lgan darajadagi ma'lumot maxfiylikni qo'riqlashga harakat qiladi hamda barcha bunday ma'lumotlarga amaldagi maxfiylik to'g'risidagi qonunlar va nizomlar, jumladan, "Olianing ta'lim olish huquqlari va ma'lumotlari sir saqlanishi to'g'risida"gi federal qonunga ("FERPA") mos ravishda munosabatda bo'ladi.

Departament DASA qonuni haqida ota-onalar, vasiylar va boshqa qiziqqan shaxslar uchun Nyu-York shtatidagi eng ko'p so'zlashiladigan o'nta tilda resurslar chiqaradi.

Bundan tashqari, NYSHTD maktab xodimlari, o'quvchilar, ota-onalar va hamjamiyatlarga yordam beradigan quyidagi resurs va qo'llanmalarni belgilagan. Qo'llash mumkin bo'lgan joylarda mana shu resurslardan foydalaning hamda ushbu qo'llanmalarni maktab hamjamiyatlaringizning maqsad va ehtiyojlari bilan birlashtirish orqali barcha bolalarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarimizga qo'shiling.

- NYSHTD va NYSH Bosh prokurori okrug boshqaruvchilariga xati va yo'riqnoma: <http://www.p12.nysed.gov/dignityact/documents/SED-AGLtrandGuidance8-31-16.pdf>
- Maktablarimizda qo'rqitish, ta'qib qilish, tahdid qilish va kamsitish muammolarini hal etish: [http://www.p12.nysed.gov/dignityact/documents/PreventBullyingInYourSchool\\_Nov2016.pdf](http://www.p12.nysed.gov/dignityact/documents/PreventBullyingInYourSchool_Nov2016.pdf)
- Maktab okruglariga maktab xodimlarining malakasini oshirishda na'munaviy o'quv materiallari: [https://ag.ny.gov/sites/default/files/dasa\\_training\\_materials\\_final\\_-\\_8.30.16.pdf](https://ag.ny.gov/sites/default/files/dasa_training_materials_final_-_8.30.16.pdf)
- "Barcha o'quvchilarning qadr-qimmatini to'g'risida"gi qonun, jumladan, "Maktab ma'murlari va o'qituvchilari uchun resurs va istiqboldagi amaliyotlar yo'riqnomasi" qo'shimcha yo'riqnoma hamda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi maktablar tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha yo'riqnoma va qo'llanma bilan birga: <http://www.p12.nysed.gov/dignityact>
- Nyu-York shtatining "Bag'rikenglikka o'rgatish hamda xavfsiz va sog'lom o'qib-o'rganish muhitini qo'llab-quvvatlash uchun maktablarda xavfsizlikni ta'minlashga oid tezkor havola resurslari: <http://www.nyscfss.org/#!quick-links/c13iz>
- Maktablarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasi va maktablar uchun ruhiy salomatlik resurslariga oid NYTShTD ma'lumotlari: <http://www.p12.nysed.gov/sss/ssae/schoolsafety/save/>

- Nyu-York shtati Maktablar uchun tibbiyot markazining yangilangan "Ruhiiy salomatlik va maslahat resurslari" sahifasi:  
<https://www.schoolhealthny.com/site/default.aspx?PageType=3&ModuleInstanceID=190&ViewID=7b97f7ed-8e5e-4120-848f-a8b4987d588f&RenderLoc=0&FlexDataID=108&PageID=126>

Butun Nyu-York shtatida o'quvchilarimiz, oilalarimiz va hamjamiyatlarimizni har kuni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlaringiz uchun yana bir karra rahmat. Hammamiz birlashsak, o'quvchilarimiz va maktab hamjamiyatlarimiz maktab muhitida o'zini xavfsiz ekanini va qo'llab-quvvatlanayotganini his qilishiga ishonch hosil qilamiz. Mabodo ushbu muhim mavzularni muhokama qilmoqchi yoki biror xavotiringizni izhor qilmoqchi bo'lsangiz, har doimgiday, bizga, ya'ni 518-486-6090 yoki [studentsupportservices@nysed.gov](mailto:studentsupportservices@nysed.gov) orqali O'quvchilarga yordam ko'rsatish xizmatlari boshqarmasiga va yoki 718-722-2445 yoki [obewl@nysed.gov](mailto:obewl@nysed.gov) orqali Ikki tilli ta'lim va jahon tillari boshqarmasiga murojaat qiling.